IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: RD98019013

**12-01/441-son** 4 iyul 2024 yil.

**"ТАСДИҚЛАЙМАН"**

**Вилоят ҳокими**

**Н.Турсунов**

**Navoiy viloyati hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish bo‘yicha**

**DASTUR**

| **T/r** | **Tadbir nomi** | **Amalga oshirish mexanizmi** | **Muddat** | **Ijrochilar** *(tashkilotda mas’ul bo‘linmalarga yuklatiladi)* |
|---|---|---|---|---|
| | | **Tashkiliy chora-tadbirlar** | | |
| | Viloyat hokimligining mavjud ichki idoraviy hujjatlaridagi belgilangan talablarni “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunga (keyingi o‘rinlarda – Qonun) muvofiqlashtirish choralarini ko‘rish.<br><br>Bunda, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishda o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish masalasini inobatga olish. | 1. Viloyat hokimining o‘rinbosari rahbarligida ishchi guruhini tashkil etish.<br><br>2. Ishchi guruh tomonidan tegishli ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish.<br><br>3. Xatlovlar natijasiga asosan viloyat hokimligi ichki idoraviy hujjatlarini Qonun talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli qaror (farmoyish, buyruq)larni qabul qilish. | 2024-yil iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov)*,<br><br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev)*,<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov)*,<br><br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tuman (shahar) hokimliklari |
| | Odob-axloq komissiyasining va maxsus bo‘linmaning manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarini tartibga solish bo‘yicha faoliyatini tashkil etish. | 1. Ishchi guruh tomonidan Odob-axloq komissiyasining va maxsus bo‘linmaning manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishga qaratilgan tegishli hujjatlarini tahlil qilish.<br><br>2. Tahlillarga asosan mavjud imkoniyatlar doirasida Odob-axloq komissiyasining va korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basini faoliyatini to‘liq yo‘lga qo‘yishga doir tegishli qaror (farmoyish, buyruq)larni qabul qilish. | 2024-yil<br>iyul - avgust<br><br>2024-yil<br>sentabr | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br><br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev),*<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov)* |
| | Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarining axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta’minotlarini Qonun bilan belgilanayotgan talablarga muvofiqligini o‘rganish hamda mavjud moliyaviy imkoniyatlari doirasida ularni takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy choralarni ko‘rish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridagi idoralarning axborot tizimlari, savdo platformalari va boshqa dasturiy ta’minotlari orqali xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalarni va xabarnomalarni yuborish imkoniyatini joriy etish.<br><br>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni Raqamli texnologiyalar vazirligiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>iyul - avgust<br><br>2024-yil<br>sentabr | Viloyat Raqamli texnologiyalar boshqarmasi *(A.Bo‘ronov),*<br><br>Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi,<br><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br><br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br><br>tuman (shahar) hokimliklari |
| | Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati | Amaliy chora-tadbir | 2024-yil<br>iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | bilan ma’lum bo‘lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor etishga yo‘l qo‘yilmasligi yuzasidan mas’ul xodimlarni **ogohlantirish ishlarni** amalga oshirish. | | | Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| **Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tartibga solish chora-tadbirlari** | | | | |
| | Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklovlarga rioya etilayotganligini o‘rganish, bunday cheklovlarning samaradorligini tahlil qilish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari faoliyatiga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha qanday cheklovlar mavjudligini xatlovdan o‘tkazish.<br>2. 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida ushbu cheklovlarga rioya qilinishi holatini o‘rganish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| | Yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida yaqin qarindoshlar bevosita bo‘ysunuvda yoki nazorat yo‘nalishidagi tashkilotlarda ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish. | 2024-yil<br>iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi *(L. Xayrullayev),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | | tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| | Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida bo‘lgan idoralarda xodimlar o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida xodimlarni o‘rindoshlik asosida ishlayotgan holatlarni aniqlashga qaratilgan tahlillarni amalga oshirish.<br>2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov)*,<br>viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi *(L. Xayrullayev)*,<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov)*,<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| | Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridan ishdan bo‘shagan xodimning o‘z ish joyida bevosita nazoratida bo‘lgan tashkilotlarga ishga kirish holatlarini aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida bevosita o‘zi nazoratga amalga oshirgan tashkilotga ishga o‘tgan xodimlarni ro‘yxatini shakllantirish.<br>2. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov)*,<br>viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi *(L. Xayrullayev)*,<br>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Navoiy viloyati filiali *(Z.Sultonov)*,<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov)*,<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tuman (shahar) hokimliklari |
| | Xodim o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan holatlarni aniqlash hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. O‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilayotgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish.<br>2. Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan xodimlar soni va ularning ro‘yxatini shakllantirish.<br>3. Tayyorlangan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil iyul | Viloyat hokimligi Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>viloyat Soliq boshqarmasi *(S. Nazarov),*<br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| . | Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlari tomonidan 2024-yilda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha yillik deklaratsiyalarni to‘ldirilishini ta’minlash.<br>2. Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha to‘ldirilgan yillik deklaratsiyalarni tahlil qilish va tartibga solish choralarini ko‘rish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil iyul | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| . | Viloyat hokimligi, uning boʻysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar toʻqnashuvi boʻyicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish hamda natijalarini Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 1. Tashkilot va uning tizimida xodimlar tomonidan 2023-yil va 2024-yilning 1-yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar toʻqnashuvi boʻyicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish.<br>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan maʼlumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>avgust | Viloyat hokimligi Murojaatlar bilan ishlash boʻlimi *(Q.Abduazizov),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shoʻbasi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| **Amalga oshiriladigan targʻibot tadbirlari va xodimlarni malakasini oshirish** | | | | |
| . | Ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi xabarnomaning belgilangan shaklini rasmiy veb-saytga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish. | 1. Viloyat hokimligining rasmiy veb-saytga va tegishli elektron tizimlarga joylashtirish.<br>2. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan maʼlumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil sentabr | Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari boʻyicha hokimning maslahatchisi *(Sh.Raubayeva),*<br>Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi,<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat shoʻbasi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| . | Viloyat hokimligi, uning boʻysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklari xodimlarining manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq qonunchilik hujjatlari boʻyicha bilim va koʻnikmalarini onlayn test sinovlari orqali | 1. Viloyat hokimligi, uning boʻysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridagi boshqaruv xodimlarining Adliya vazirligi tomonidan oʻtkaziladigan manfaatlar | 2024-yil<br>iyul-sentabr | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev),* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | baholash hamda ularning malakasini oshirish bo‘yicha tashkiliy choralarni belgilash. | to‘qnashuvi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini onlayn testda to‘liq ishtirokini ta’minlash.<br>2. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklaridagi boshqaruv xodimlarining malakasini oshirishini to‘liq ta’minlash. | | Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| . | Manfaatlar to‘qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini ta’minlash, shuningdek aholining tashkilotga bo‘lgan ishonchini oshirish yuzasidan ma’sul xodimlar uchun seminar trening tashkil etish. | 1. Viloyat hokimligi, uning bo‘ysunuvidagi boshqarma va tashkilotlar hamda tuman (shahar) hokimliklarida mas’ul xodimlari ro‘yxatini shakllantirish.<br>2. Mas’ul xodimlarni tegishli tartibda o‘qitish choralarini ko‘rish.<br>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni Respublika idoralararo komissiyasiga taqdim qilish. | 2024-yil<br>sentabr | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>viloyat adliya boshqarmasi *(U. Abdullayev),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |
| . | Qonun ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruhlarning so‘roviga ko‘ra tegishli ma’lumotlarni o‘z vaqtida taqdim qilib borish ishlarini amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbir | doimiy | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi *(E. Avezov),*<br>Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat sho‘basi *(F. Xasanov),*<br>tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbarlari*,<br>tuman (shahar) hokimliklari |